TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish yuzasidan O'zbekiston va xorijlik olimlar, amaliyotchilar tomonidan juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning muhimlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Xalqaro standartlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha Alekseeva G.I.; kichik va o'rta biznes subyektlarida xalqaro standartlarni qo'llash yuzasidan Valinurova A.A., Guseva A.A.; Vaxorina M.V.; global iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha, korporativ hisobotlar yuzasidan Vaxrushina M.A.; integrallashgan hisobotlar va xalqaro standartlar konseptual asoslari va tuzilishi yuzasidan Getman V.G.; Biroq ularda milliy hisobchilik va auditorlik tekshiruv o'tkazish tizimidagi jihatlarini xalqaro standartlarga o'tkazishning ko'proq nazariy, konseptual asoslariga ahamiyat qaratilgan holda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishning to'liq metodologik jihatlarini ochib berilmagan. Ya'ni umumiy va nazariy jihatlarini, moliyaviy hisobotlarning qisman qiyosiy tahlili, ochib berishlarning ayrim jihatlarini tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobot – buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan hisobotdir. Moliyaviy hisobot va ularni tuzish va taqdim etishning amaldagi tartiblarida axborot foydalanuvchilar keng tarkibi keltiriladi (haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqalar).

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining yana bir muhim ustunligi investor uchun ma'lumotlar berish imkoniyatining kengligidir.

Bazan shunday hollar ham bo'ladiki milliy standartlar bo'yicha foyda bilan chiqqan korxona xalqaro stadartlar bo'yicha zarar bilan chiqqanligini ko'rish mumkin. Bu esa milliy standartlar bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarning investitsiya qarorlari tayyorlashda qanchalik foydasiz ekanligidan dalolatdir. Bu bilan investorlar eng to'liq, tushunarli va ishonchli axborotlarga ega bo'ladi. Amaldagi milliy standartlar ulardagi mazmun asosida tuzilgan bo'lishiga qaramay qaysidir ma'noda davlat nazoratini yo'lga qo'yish va kuchaytirishning ma'lum bir belgilarini o'ziga singdirib olganligini ko'rish mumkin. Shuningdek buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartiblarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligiga to'liq ma'sullikning belgilanishi ham mulkdorlar va investorlar talablariga ma'lum ma'noda zid kelishi albatta o'rinli.



Shu sababli ham qator yillar davomida O'zbekistonda hisob va hisobotning muqobilligi bizga boshqaruv uchun alohida, davlat uchun alohida, xalqaro talab uchun alohida hisob va hisobot yuritishimizga to'g'ri kelgan. Bugun aniq tartib belgilandiki halqaro standartlarga o'tish kerak. Muammoli jihatlardan bittasi shuki milliy standartlar ham to'liq amalda bo'ladi va unga amal etish muqobillik asosida tanlanadi. Aslida o'tish kerak deb qat'iy tartibning belgilanishi ham to'g'ri emas. Xorijiy banklar tomonidan kredit olinishi kerakligi uchun ham yoki xalqaro tashkilotlar bilan lizing shartnomalari imzolash uchun ham moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish zarur deb tushunish ma'lum ma'noda to'g'ri emas. Biz birinchi navbatda barchaga uchun ishonli, to'liq va tushunarli bo'lgan axborotlar makoniga olib chiqishning yagona vositasi bo'lgan hisobotlarni bir hilda o'qishni imkonini beruvchi standartlarga o'tishimiz lozim. Bu standart milliy standart bo'ladimi, xalqaro standart bo'ladimi, yoki o'zga nomdagi boshqa bir tartib bo'ladimi bundan qat'iy nazar lekin haqiqat shuki buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni butun dunyo ortiqcha xarakatsiz, xarajatsiz tushunsin va o'qisin. Afsuski muqobillik ularning bir xilligini ta'minlay olmaydi. Jamiyatdagi, tizimdagi, iqtisodiyotdagi shartlar, farqli jihatlar uning mazmuniga ta'sir qilmasligi lozim. Shu sababli bizning oldimizda ikkita yo'l mavjud. Birinchisi milliy standartlarni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish, yoki to'liq moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish.

Xalqaro standartlarda moliyaviy hisobotlarning oraliq, jamlangan, alohida moliyaviy hisobot turlari tarkiblanadi. Ularning farqli jihatlarini quyidagicha izohlash mumkin (1-jadval).

1-jadval: Moliyaviy hisobot shakllari

Oraliq moliyaviy hisobot (BHXS-37;)	Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar (BHXS-27)	Alohida moliyaviy hisobot(BHXS-27)
oraliq davr bo'yicha moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plamiga yoki qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarning	bu guruhning moliyaviy hisobotlari bo'lib, unda bosh tashkilot va uning sho'ba tadbirkorlik subyektlarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali,	bu bosh tashkilot (yoki shu'ba tadbirkorlik subyektini nazorat qiladigan investor) yoki shunday investitsiya obyekti ustidan birgalikdagi
to'plamiga ega moliyaviy hisobotni bildiradi.	daromadlari, xarajatlari va pul oqimlari yagona iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektga tegishli sifatida taqdim etiladi.	nazoratga ega, yoki ahamiyatli ta'sirga ega bo'lgan investor tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- moddiy va moliyaviy resurslar xarakati o'rtasidagi muvozanat darajasini aniqlash;
- optimal foyda olishni maqsad qilgan iqtisodiy aylanma jaryonida mulk va qarz mablag'lari oqimini baholash;
- samarali kapital tuzilmasini saqlab qolish uchun pul mablag'laridan foydalanish darajasini aniqlash ;
- tashkilotlar moliyaviy oqimlarini nazorat qilish, moddiy va moliyaviy resrlarni sarflash meyorlariga va standartlariga rioya qilish

Bugungi kunda korxonalarining rivojlantirish strategiyalarini belgilashga zaruriyat tobora ortib bormoqda. Negaki, boshqaruv subyektlari orasida kelajakdagi holatni bilish yuzasidan turli nizoli vaziyatlarni, mavjud axborotlardan foydalangan holda, oldindan ko'ra bilishga va ularni hal qilishga zaruriyat kuchaymoqda.

Yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish, uni saqlab qolish, rivojlanish va taraqqiyotning muhim tayanchiga ega bo'lish, turli risklar ta'sirida kelajakning rejasini oldindan belgilash doimo iqtisodchilar o'rtasida munozorali bo'lib kelgan va har doimgidan ham aktualroq masalaga aylanganligini e'tirof etish lozim. Moliyaviy manbalardan, menejerlar va boshqa qiziquvchilarning manfaatlari to'qnashuvida taktik boshqaruv qarorlarini tayyorlashda foydalanish bir qadar murakkab jarayon hisoblanadi.

2-jadval: Moliyaviy hisobot shakllari va ularning tarkibi

Buxgalteriya balansi (moliyaviy holat to'g'risidagi)	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (foyda va zararlar to'g'risidagi)	Pul oqimi to'g'risidagi hisobot (Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi)	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (xususiy kapital o'zgarishi to'g'risidagi)
Aktivlar, kapital va majburiyatlar haqidagi, moliyaviy holat to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradi	Foyda va zararalar (operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat) to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradi	Milliy va xalqaro valyuta mablag'lari harakati to'g'risidagi harakati to'g'risidagi hisobot mablag'lari ma'lumotlarni aks ettiradi	O'z mablag'lari va ularning tarkibiy tuzilishi haqidagi ma'lumotni aks ettiradi



Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish uchun auditorlik haqidayam to'xtalsak.

Audit qo'mitasi – xo'jalik yurituvchi subyektning kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan, qoida tariqasida, kamida bir nafar mustaqil a'zoni o'z ichiga oladigan, moliyaviy hisobotni tuzishning to'g'riligi ustidan nazorat o'rnatilishi, mustaqil auditorlik tashkilotining tanlanishi, auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi jarayonlarini kuzatish, shuningdek ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari natijalarini olish hamda o'rganish uchun mas'ul bo'lgan qo'mita.

Auditorlik tashkiloti:

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqishni amalga oshirishga;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil tarzda belgilashga;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq hujjatlarni to'liq hajmda olishga, shuningdek ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirishga;
- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan e'lon qilingan auditorlik tashkiloti tanlovlarida ishtirok etishga, shuningdek tanlov shartlari bilan tanishib chiqish va o'z takliflarini taqdim etishga;
- xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslaridan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan, audit qo'mitasidan auditorlik tekshiruvi jarayonida yuzaga kelgan masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar olishga;
- uchinchi shaxslardan axborotning yozma tasdiqnomalarini olishga;
- auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan axborot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda auditorlik tekshiruvi o'tkazishni rad etishga;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etish uchun boshqa mutaxassislarni ekspert sifatida jalb etishga;
- auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olinadigan davrda xo'jalik yurituvchi subyektga turdosh xizmatlar ko'rsatishga, bundan buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish, taftish komissiyasi (taftishchi) vazifalarini, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish mustasno;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashishga haqli.

Auditorlik tashkiloti qonunchilikka va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Auditorlik xizmatlari sifatini oshirish va samarali tartibga solish usullarini joriy etish, auditorlik xizmatlari bozorida nohaq raqobatga barham berish, shuningdek, auditorlik tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha rag'batlantirish maqsadida:

- auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalarni audit turiga qarab farqlash tizimi joriy etildi;
- auditorga faqat bitta auditorlik tashkilotida auditorlik faoliyatini amalga oshirish, shuningdek, faqat bitta auditorlik tashkilotining ta'sischisi bo'lishi talabi joriy etildi;
- auditorlik tashkilotiga bir xo'jalik yurituvchi subyektda ketma-ket uch yildan ortiq auditorlik tekshiruvini o'tkazishni taqiqlash to'g'risidagi talab kiritildi;
- auditorlik tashkilotlarida auditorlik faoliyati uchun ichki sifat standartlariga ega bo'lish talabi joriy etilgan;
- auditorlarning professional jamoat birlashmalari tomonidan auditorlik tashkilotlarini majburiy reyting baholash tizimi joriy etildi;
- auditorlik tashkiloti rahbariga har uch yilda bir marta majburiy attestatsiyadan o'tish talabi joriy etilgan;




- Moliya vazirligiga kamida uch yilda bir marta auditorlik tashkilotlarining litsenziyalash talablari va shartlariga muvofiqligini majburiy tekshirishni o'tkazish talabi joriy etildi;
- auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida 50 foizi muassislar (ishtirokchilar) mablag'lari hisobidan, qolgan qismi esa auditorlik faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan moddiy boyliklar hisobidan shakllantiriladigan tartib belgilangan bo'lsa;
- auditorlik xodimlarining belgilangan eng kam soni ushbu auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi bo'lgan auditorlar bilan to'liq ta'minlanganligi;
- auditorlik tashkilotlariga litsenziya olishdan keyin yuzaga keladigan litsenziya talablari va shartlariga nomuvofiqliklarni muayyan muddatda bartaraf etish imkoniyati beriladi.

3-jadval: Auditorlik tashkilotlari daromadi dinamikasi

Daromad dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi – jami, milliard so'm	130,1	206,40	321,16	356,78
Auditorlik xizmatlarining YalMdagi ulushi (%)	0,025	0,036	0,044	0,058

2022-yilda ko'rsatilgan auditorlik xizmatlari hajmi 2021-yilga nisbatan 0,11 barobarga oshib, 356.78 milliard so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.



1-rasm: Auditorlik tashkilotlari daromadi dinamikasi

Auditorlik tashkilotlarining qariyb 60 foizi auditorlik faoliyati bilan o'n yil va undan ko'proq vaqt davomida shug'ullangani auditorlik faoliyatining professionaligi va pozitsiyasining mustahkamlanganligini tasdiqlaydi. Auditorlik bozori hali ham yuqori konsentratsiya bilan tavsiflanadi.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruv buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida ularga moliyaviy hisobotlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risidagi noto'g'ri yakunni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun auditorlik tashkiloti rahbari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining va u bilan bog'liq moliyaviy axborotining auditorlik tekshiruv tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotning ishonchliligini va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladi.

Ishonchlilik deganda moliyaviy hisobot ma'lumotlarining aniqlik darajasi tushunilib, u ushbu hisobot asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida xolis xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Auditorlik tekshiruv ushbu Qonunning 34-moddasida nazarda tutilgan cheklovlarga rioya etish sharti bilan majburiy tarzda va tashabbus shaklida o'tkaziladi.

Auditorlik tekshiruvini davlat sirlaridan va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan foydalangan holda o'tkazish faqat ularni himoya qilish choralari ko'rilganidan keyin qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.



Bulardan tashqari, auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olinadigan davrda xo'jalik yurituvchi subyektga turdosh xizmatlar ko'rsatishga, bundan buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish, taftish komissiyasi (taftishchi) vazifalarini, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish mustasno qilib qonun bilab belgilangan.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida ularga moliyaviy hisobotlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risidagi noto'g'ri yakunni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining va u bilan bog'liq moliyaviy axborotining auditorlik tekshiruvi tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotning ishonchligini va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladi.

Ishonchlilik deganda moliyaviy hisobot ma'lumotlarining aniqlik darajasi tushunilib, u ushbu hisobot asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida xolis xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Auditorlik tashkilotlari quyidagi turdosh xizmatlarni ko'rsatishi mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish;
- yuridik shaxsning taftish komissiyasi (taftishchisi), investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish masalalari bo'yicha maslahat berish;
- auditorlik tashkilotining shtatida soliq maslahatchisi mavjud bo'lganda yoxud shartnoma shartlari asosida uni jalb etgan holda, soliqqa oid qonunchilikni qo'llash, soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar, deklaratsiyalar tuzish yuzasidan maslahatlar berish;
- moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalashtirish, shu jumladan biznes-rejalar tayyorlash, iqtisodiy, moliyaviy maslahat va boshqaruvga oid maslahat berish;
- buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy hisobot, soliq solish, moliya-xo'jalik faoliyatini hamda moliyaviy rejalashtirishni tahlil qilishga doir seminarlar, konferensiyalar o'tkazish;
- buxgalteriya hisobini yuritishni avtomatlashtirish va moliyaviy hisobot tuzish, moliyaviy axborotning axborot xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyati standartlarida nazarda tutilgan boshqa turdosh xizmatlarni ham ko'rsatishi mumkin.

Yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunigacha o'tkazmaslik va auditorlik xulosasining yo'qligi xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlashi deb e'tirof etiladi.

Auditorlik xulosasi

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining yozma shaklda ifodalangan fikrini o'z ichiga olgan hujjat auditorlik xulosasidir.

Auditorlik xulosasi raqamlangan, har bir sahifasi auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) va auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan hamda unga auditorlik tashkilotining fikri qaysi moliyaviy hisobotga nisbatan ifodalangan bo'lsa, o'sha moliyaviy hisobot ilova qilingan bo'lishi kerak.

Auditorlik xulosasining shakli va mazmuni auditorlik faoliyati standartlari bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Glaballashuv, tashqi bozorlarga chiqish, xalqaro savdo va tijoratni yo'lga qo'yish, jahon fond bozorida ishtirok etishda korxona moliyaviy hisobotlari ham barcha uchun bir xil shaklda va mazmunda chop etilishi zarur deb xisoblaymiz.

Soliqlar, to'lovlarning uzoq davriylikdagi normalarining qat'iy belgilanmaganligi moliyaviy hisobotlarni prognozlash (bashoratlash)dagi asosiy kamchiliklardan bittasidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, O'zbekiston Respublikasida audit yagona iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida rivojlanib, uning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shuni ta'kidlash kerakki, davlat siyosati moliyaviy



hisobotlarni tuzish va auditorlik tekshiruvdan o'tkazish faoliyatini rag'batlantirish va kengaytirishga qaratilgan. Respublikada auditorlik faoliyatini tashkil etish va tartibga solishning turli tartiblarini tartibga soluvchi qator qonunchilik va hukumat hujjatlari qabul qilingan. Mamlakatimizda auditning 30 yildan ortiq rivojlanishi natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy hisobotlarni tuzish va auditorlik tekshiruvdan o'tkazish O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 25.02.2021-yildagi O'RQ-677-son. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 10-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2021-yil 5-fevralda ma'qullangan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Sana: 16.07.2012. Raqami: PF-4453. Yuklab olish(.doc)(30.46 KB).
3. Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. T.:Iqtisod-moliya 2015, 356-b.
4. G'.B.Quvvatov. "Moliyaviy hisobotlar va ularning tuzilishidagi muhim jihatlar: milliy va xalqaro tajriba" Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2019. – № 6. 1-14- b. <https://interfinance.uz/uz/en>.
5. Алексеева Г.И. Особенности первого применения Международных стандартов финансовой отчетности // Международный бухгалтерский учет. 2014. № 39. С. 2 – 14. 6.).
6. Валинурова А.А., Гусева А.А. Оценка перспектив применения МСФО для малого и среднего бизнеса в России // Бухгалтерский учет в издательстве и полиграфии. 2014. № 1. С. 30 – 37. 18.
7. Вахорина М.В. Особенности формирования учетной информации в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности / Все для бухгалтера. 2014. № 4 С. 20 – 26. 19.
8. Quvvatov G., Norquziyev A. 2023-yil soliq qonunchiligidagi kiritilgan o'zgartishlarning davlat byudjetiga va iqtisodiyotga ta'siri // International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 10-15.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.